


Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020- yil yanvar-dekabr

Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **19921,7** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **74,1** % ni tashkil etdi.



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **8281,9** mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **70,9** % ni tashkil etdi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning **58,4** % i yoki **11639,8** mlrd. so'm o'zlashtirildi.

mlrd. so'm




Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 41,6 % i yoki 8281,9 mlrd. so‘mini markazlashgan investitsiyalar tashkil qildi. Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga 7220,8 mlrd. so‘m investitsiyalar kiritildi va o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 68,8 % foizni tashkil qildi, Respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan 711,7 mlrd. so‘m yoki o‘tgan yilning joriy davriga nisbatan 71,6 %, Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 245,2 mlrd. so‘m o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 130,7 % ni tashkil etdi. Bu yirik investitsion loyihalar bilan bog‘liq bo‘lib, “O‘ZBEKISTON GTL ma‘suliyati cheklangan jamiyati” tomonidan tozalangan metan gazidan sintetik suyuq yoq‘ilg‘ini ajratib olish uchun mo‘ljallangan uskunalari keltirilmoqda hamda qurilish ishlari bajarilmoqda.

Markazlashgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da



- Respublika byudjeti
- Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish
- O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar
- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

Markazlashgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da



- Korxonalar mablag'i
- Tijorat banklari kreditlari
- Boshqa qarz mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Xorijiy investitsiya va kreditlar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 58,4 % i yoki 11639,8 mlrd. so'mini markazlashmagan investitsiyalar tashkil qildi. Shundan to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushiga to'g'ri kelmoqda. Bunga sabab viloyatimizda xorijiy korxonalar tomonidan ko'proq investitsiyalar jalb qilinganligi bilan bog'liqdir.

Korxonalar mablag'lari hisobidan 2863,3 mlrd so'm investitsiyalar moliyalashtirilgan. Aholi mablag'lari hisobidan 1717,7 mlrd so'm yoki 14,8 % ni Tijorat banklari kreditlari hisobidan jami investitsiyalarning 7,5 % i yoki 870,2 mlrd so'm investitsiyalar jalb qilindi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar
(2020-yil yanvar-dekabr oylarida)


	mlrd. so`m	o`shish sur`ati, % da	yakunga nisbatan, % da
Asosiy kapitalga investitsiyalar	19921,7	74,1	100
Markazlashgan investitsiyalar:	8281,9	70,9	41,6
➤ Byudjet mablag`lari	711,7	71,6	8,6
➤ Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag`lari	104,2	-	1,3
➤ Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	245,2	130,7	3,0
➤ O`z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	7220,8	68,8	87,1
Markazlashmagan investitsiyalar:	11639,8	76,6	58,4
➤ Korxonalarining o`z mablag`lari	2944,8	66,6	25,3
➤ Aholi mablag`lari	1717,7	106,5	14,8
➤ To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar	6092,7	73,3	52,3
➤ Tijorat banklari kreditlari	870,2	111,6	7,5
➤ Boshqa qarz mablag`lari	14,4	45,1	0,1

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi **58,4** % ni yoki **11639,8** mlrd. so`mni tashkil etdi. O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag`i **2944,7** mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning **14,8** % i o`zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hududlar kesimida
(2020-yil yanvar-dekabr oylarida)


	Jami		shu jumladan xorijiy investitsiya va kreditlari	
	mlrd. so'm	o'sish sura'ti, % da	mlrd. so'm	jamiga nisbatan ulushi, % da
➤ Viloyat bo'yicha:	19921,7	74,1	13313,6	70,8
<i>shaharlar:</i>				
➤ Qarshi	2068,4	93,2	809,5	349,7
➤ Shahrisabz	155,1	85,1	13,9	133,9
<i>tumanlar:</i>				
➤ G'uzor	3809,4	156,5	2446,8	155,3
➤ Dehqonobod	185,7	25,4	37,0	6,2
➤ Qamashi	178,9	3,7	4,8	0,1
➤ Qarshi	1244,6	125,0	771	148,9
➤ Koson	283,2	132,9	29,5	230,7
➤ Kitob	811,5	191,1	518,6	261,3
➤ Mirishkor	581,4	214,4	254,7	181,6
➤ Muborak	2836,6	101,9	1963,8	7045,9
➤ Nishon	6591,8	61,2	6240,6	60,2
➤ Kasbi	339,2	64,8	169,5	40,9
➤ Chiroqchi	252,2	130,3	25	162,2
➤ Shahrisabz	273,3	132,1	3,7	6,3
➤ Yakkabog'	310,4	91,4	25,2	42,7

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida Mirishkor, Kitob va G'uzor tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning G'uzor tumanida **19,1** % i, Nishon tumanida esa **33,1** % i o'zlashtirildi. Kitob tumanida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi **4,1** % ni tashkil qilgan bo'lsa, Dehqonobod tumanida esa bu ko'rsatkich bo'yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi, ya'ni - **0,9** %.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami mlrd. so'm	<i>shu jumladan, ulushi % da</i>		
		qurilish-montaj ishlari	mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jixozlari	boshqa xarajatl ar
➤ Viloyat bo'yicha:	19921,7	46,1	47,8	6,1
shaharlar:				
➤ Qarshi	2068,4	51,2	46,6	2,2
➤ Shahrisabz	155,1	44,1	49,5	6,4
tumanlar:				
➤ G'uzor	3809,4	57,6	40,7	1,7
➤ Dehqonobod	185,7	66,7	8,6	24,7
➤ Qamashi	178,9	52,9	29,6	17,5
➤ Qarshi	1244,6	27,3	68,9	3,8
➤ Koson	283,2	51,6	29,7	18,7
➤ Kitob	811,5	55,2	38,9	5,9
➤ Mirishkor	581,4	33,6	38,0	28,4
➤ Muborak	2836,6	70,4	27,9	1,7
➤ Nishon	6591,8	29,9	63,2	6,9
➤ Kasbi	339,2	30,4	57,5	12,1
➤ Chiroqchi	252,2	67,1	11,9	21,0
➤ Shahrisabz	273,3	49,0	41,2	9,8
➤ Yakkabog'	310,4	46,1	29,8	24,1

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

2020-yil yanvar-dekabr

(jamiga nisbatan, % da)




Tog'-kon sanoati tarmog'i bo'yicha **7169,6** mlrd. so'm o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining **36,0** % ini tashkil qildi, ishlab chiqarish sanoati sohasida **1997,6** mlrd. so'm investitsiya o'zlashtirilib, jami investitsiyadagi ulushi **10,0** % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

2020-yil yanvar-dekabr oylarida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **6887,8** mlrd. soʻmi boshqa yoʻnalishlarga yoʻnaltirilgan boʻlib, boshqa yoʻnalishlarga yoʻnaltirilgan investitsiyalarning hajmi jami oʻzlashtirilgan investitsiyalarning **34,6** % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi **9882,5** mlrd. soʻmni tashkil etib, jami investitsiyalarning **49,6%** ini oʻzlashtirildi. Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik qayta qurollantirishga yoʻnaltirilgan investitsiyalar **3151,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi va viloyatda jami oʻzlashtirilgan investitsiyalarning **15,8** % ini tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2020- yil yanvar-dekabr oylarida **13313,6** mlrd. so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning **66,8** % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.




Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar **3875,2** mlrd. so`mni tashkil qildi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **29,1** %. Shuningdek, **9014,0** mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **67,7** % ni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Xorijiy investitsiya va kreditlari (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		xorijiy investitsiya	xorijiy kreditlar
➤ Viloyat bo'yicha:	13313,6	4299,6	9014,0
<i>shaharlar:</i>			
➤ Qarshi	809,5	159,5	650,0
➤ Shahrisabz	13,9	-	13,9
<i>tumanlar:</i>			
➤ G'uzor	2446,8	24,5	2422,3
➤ Dehqonobod	37,0	26,1	10,9
➤ Qamashi	4,8	0,3	4,5
➤ Qarshi	771,0	596,0	175,0
➤ Koson	29,5	1,0	28,5
➤ Kitob	518,6	340,6	178,0
➤ Mirishkor	254,7	253,2	1,5
➤ Muborak	1963,8	659,5	1304,3
➤ Nishon	6240,6	2068,0	4172,6
➤ Kasbi	169,5	169,2	0,3
➤ Chiroqchi	25,0	-	25,0
➤ Shahrisabz	3,7	1,4	2,3
➤ Yakkabog'	13313,6	4299,6	9014,0

**Uy-joylarni foydalanishga topshirish
ming. kv. metr**



2020 yilning yanvar-dekabr oylarida jami umumiy maydoni 1026,8 ming kv.metr (2019- yilning mos davriga nisbatan 99,4 %) bo'lgan 5286 ta turar joy ob'ekti yangi qurilib ishga tushirildi. Ulardan umumiy maydoni 558,8 ming kv.metr bo'lgan 3057 tasi qishloq joylarda foydalanishga topshirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarni xududlar kesimida solishtiradigan bo'lsak, eng 109 ming kv.metr va u viloyatda ishga tushirilgan umumiy maydonning 10,6 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Shahrisabz shahrida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,6 % ni tashkil etdi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: B. Jononov

Aloqa telefoni: 75 221-32-47